

HO'JA CHORSHANBA ZIYORATGOHI

Nafisa JO'RAYEVA *

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'rta asrlarda Buxoro shahrining janubiy-g'arbiy tomonida joylashib, uning muhim tarkibiy qismiga aylangan Ho'ja Chorshanba mozori to'g'risida, bu ziyoratgohning tarixiy joylashgan o'rni, asrlar davomida o'zgarishi, hududining kengayish va qisqarish sabablari, shuningdek, bugungi kundagi topografik o'rni xususidagi mulohazalar keltirilgan. Ho'ja Chorshanba mozori Buxoro shahridagi Chashmayi Ayyub, Turki Jandi, Ho'ja Bulg'or, Ho'ja Nurobod, Ho'ja Sesaron qabristonlari kabi qadimiy sanaladi. Qabriston Somoniylar davriga tegishli. Bu tepalikda ko'p ulug'lar dafn etilganligi alohida qayd qilingan. Manbalarda o'z davrining mashhur va nufuzli xonadoni sanalgan Jo'ybor ho'jalari xilxonasi ham Ho'ja Chorshanba mozorida bo'lganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Shunday manbalar qatoriga "Tuhfat uz-zoirin" asari kiradi. Asarda Ho'ja Chorshanba tepaligida dafn qilingan ulug' avliyolar mozorlari va ziyorat obyektlari haqidagi muhim ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Imom Ala ul-haqq va din Imom Muzaffar (1349- yilda vafot etgan), Ho'ja Kamol ad-din Tohir ibn Hazrat Imom Muzaffar (1432- yilda vafot etgan), Sirojiddin Muhammad Shayx ul-islom, Muhiddin Muhammad Yahyo, Ho'ja Nizomiddin ibn Ho'ja Muhammad Yahyolar shu mozorda dafn etilgan. Ho'ja Chorshanba mozorida keng miqyosli topografik o'zgarishlar sobiq Ittifoq davrida amalga oshirilgan. Bugungi kunda Ho'ja Chorshanba qabristonidan Usto Shirin ko'chasi 39-uyning oldida birgina sag'ana saqlab qoling. Mazkur qabristonning shimoliy tomoni Ho'ja Aspgardon hovuzi va qadamjosiga tutashib ketgan. Hozirda Ho'ja Chorshanba qabristoni o'rnida Usto Shirin va Shota Rustaveli ko'chalari joylashgan. Maqolada shu kabi masalalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Havzi Miqdom, Jo'ybor ho'jalari, Tali Ho'ja Chahorshanbe, Somoniylar davri, muqaddas ziyoratgoh.*

The Shrine of Khoja Chorshanba

Abstract: In the following article the Khoja Chorshanbe Shrine, located on the southwestern side of the city of Bukhara in the Middle Ages, which became an important part of the city, the historical location of this pilgrimage site is assessed, the changes it underwent over the centuries, the reasons for the expansion and contraction of its area, and also provides reflections on its current topographic location are discussed. The Khoja Chorshanbe Shrine is considered ancient, similar to other burial sites in Bukhara, such as Chashmai Ayyub, Turki Jandi, Khoja Bulghor, Khoja Nurobod, and Khoja Sesaron. The shrine dates back to the Samanid period. It is particularly noted that many notable figures have been buried on this hill. The family members of Jooybor khojas are also buried in the Khoja Chorshanbe Mausoleum. The treatise "Toohfat uz-zoirin" is significant for providing important information about the graves of renowned saints and pilgrimage sites located on the Khoja Chorshanbe hill. Among those buried at the Khoja Chorshanbe Shrine are Imam Ala ul-Haqq and Imam Muzaffar (who passed away in 1349), Khoja Kamol ad-Din Tohir ibn Hazrat Imam Muzaffar (who passed away in 1432), Sirajiddin Muhammad Shaykh ul-Islam, Muhiddin Muhammad Yahya, and Khoja Nizamiddin ibn Khoja Muhammad Yahya. Significant topographic changes at the Khoja Chorshanbe Mausoleum were made during the period of the former Soviet Union. Today, only a single tombstone is preserved in front of house number 39 on Usto Shirin Street. The northern side of this cemetery was adjacent to the Khoja Aspgardon pond and pilgrimage site. Currently, the location of the Khoja Chorshanbe cemetery is occupied by Usto Shirin and Shota Rustaveli Streets. The article discusses such issues in detail.

Key Words: *Havzi Miqdam, Jooybor family, Tali Khoja Chorshanbe, Period of Samanids, sacred pilgrimage site.*

Kirish

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida ajdodlarimiz xotirasini ulug'lash maqsadida muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarni obodonlashtirish, ularni rekonstruksiya qilish va ta'mirlash borasida keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho, ma'naviy merosini o'rganishda ham muhim qadamlar qo'yildi.

Qadamjolar tarixiy topografiyasini tadqiq qilishda yozma manbalar, qo'lyozma, nodir asarlarni ilmiy tahlil qilish sohani takomillashtirib, ziyorat madaniyatini oshirishi bilan birgalikda mazkur ziyorat obyektining qimmatini va shaxsiyatini tanitish, qadamjoda dafn etilgan avliyo va tasavvuf olami pining faoliyati, ilm-fan olamidagi tarixiy xizmatini oydinlashtirishga xizmat qiladi.

*PhD. Dotsent, Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston, e-mail: jurayevanafisa0@gmail.com

Aynan shunday tadqiqotlar yordamida yo‘qolib ketishi mumkin bo‘lgan noyob tarixiy obyekt “ajoyib umumbashariy qadriyat”lar aniqlanib, uni asrab-avaylash, saqlab qolish choralari ishlab chiqiladi. Shu maqsadda har yili UNESCO tomonidan yangi madaniy meros obyektlari aniqlanib, xalqaro miqiyosda muhofazaga olinadi (Jo‘rayeva, 2024: 4).

Muqaddas qadamjolar topografiyasini o‘rganish orqali o‘rta asr shaharlari tarixiy qiyofasini tiklash – ko‘p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash, jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma‘naviy muhitni ta‘minlashning zarur shartlaridan biri hisoblanadi (Jo‘rayeva, 2024: 4).

Tadqiqotning Bibliografiyasi

Xo‘ja Chorshanba mozori tarixi va topografiyasiga doir quyidagi tadqiqotlar mavjud:

Xo‘ja Chorshanba mozori tarixiy topografiyasi to‘g‘risida o‘rta asr muarrixlari Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far Narshaxiyning Buxoro tarixi (Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far Narshaxiy, 2011: 482), Muin al-fuqaro Ahmad ibn Mahmud Buxoriyning Tarixi Mullozoda (Ahmad ibn Mahmud Buxoriy, 2019: 90), hamda Nosir ad-Din al-Xanafi al- Xasani al-Buxoriyning Tuxfat az-zairin (Nosir ad-Din, 2021: 62) asarlarida ma‘lumotlar yozib qoldirilgan. Bu manbalarda ko‘roq ziyoratgohda dafn qilingan din va tasavvuf namoyandalari faoliyati haqida ma‘lumotlar taqdim qilingan.

Shuningdek, rus sayyoh va elchilari N.Xanikov, A.Berns, L.Kostenko, A.Vamberi, I.Poslavskiylar tomonidan tuzilgan Buxoro shahrining o‘rta asrlardagi hududi tasvirlangan topografik plan va xaritalardan ziyoratgohning o‘sha davrdagi topografik o‘rnini aniqlasa bo‘ladi. Buxoro tarixi bo‘yicha yaratilgan bu tadqiqotlarda shahar tarixi, uning me‘moriy qiyofasi, hududi, aholisi, etnografiyasi, diniy e‘tiqod va madaniyati, chegarasi, iqlimi, suv bilan ta‘minlanganlik darajasi, sug‘orish inshootlari haqida ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek, ushbu tadqiqotlarning shahar topografiyasiga oid paragraflarida muqaddas qadamjolar to‘g‘risida ayrim ma‘lumotlar qayd qilingan (Jo‘rayeva, 2024: 4-5).

Buxoro shahri ziyoratgohlari tarixini o‘rganishda taniqli olim O.A.Suxarevaning tadqiqotlarini alohida ta‘kidlash lozim.Olima ijodiy faoliyatida ziyoratgoh va qadamjolar Buxoro tarixiy topografiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida tavsiflanadi. Ularning qurilishi va kompozitsiyasidagi o‘zgarish va yangiliklar shahar evolyutsiyasi bilan birgalikda sodir bo‘lganligini qator arxeologik tadqiqotlar bilan asoslab beradi.Olima ularni klasifikatsiyasini yaratadi. U Fenin xaritasida ko‘rsatilgan 30 ta qabristonning biri,ya’ni 14 raqami ostida Xo‘ja Chorshanba qabristoni tasvirlanganligini ta‘kidlaydi (Suxareva, 1958: 41-42, Suxareva, 1966: 84).

Mustaqillikdan keyingi davr shahar topografiyasini kompleks ravishda o‘rganishdan tashqari, uni yo‘nalishlar bo‘yicha ham tadqiq qilishda muhim bosqich bo‘ldi.Buxoro shahri tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda Xo‘ja Chorshanba mozori haqidagi ba’zi ma‘lumotlarni topish mumkin (Buxoriy, 2015: 278). Keyingi yillarda mazkur mavzuda qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi, dissertatsiyalar himoya qilindi.

Ammo yuqorida nomlari qayd qilingan biron tadqiqotda Xo‘ja Chorshanba mozori kompleks, yaxlit tadqiqod sifatida o‘rganilmagan.

Muhokama va natijalar

Buxoro shahrining janubiy-g‘arbiy tomonida joylashib, uning tarixiy topografiyasining muhim tarkibiy qismiga aylangan Xo‘ja Chorshanba mozori islom olamining ma‘ruf ulamo, ulug‘ olim, karomat, zuhd va mujtahid sohibi rivoyatlar, faqih, fozil va zohid imomlar, imom al humom, zubdat ul-inom va voiz ul-muluk va–s-salotin (shohu sultonlar voizi) kabi Buxoroning o‘rta asr diniy arbob va ulamolari dafn qilingan muqaddas ziyoratgoh sanaladi (Ahmad ibn Mahmud Buxoriy, 2009: 49).

Xo‘ja Chahorshanbe mozori haqidagi dastlabki ma‘lumotlar o‘rta asr mualliflari Ahmad ibn Mahmudning “Tarixi Mullozoda” hamda Sayyid Muhammad Nosirning “Tuhfat uz-zoirin” (Ziyoratchilarga tuhfa) asarlarida yoritilgan. Mazkur asarlarda Buxoro mozorlari qatorida Xo‘ja

Chorshanba mozori xususida ba'zi ma'lumotlar qayd qilingan. Mazkur manba va boshqa adabiyotlarga tayanib, mozorning hududi, chegarasi, aholi turar joylariga nisbatan uning joylashuvi kabi masalalarga oydinlik kiritamiz.

Xo'ja Chahorshanba mozori Buxoro shahridagi Chashmayi Ayyub, Turki Jandi, Xo'ja Bulg'or, Xo'ja Nurobod, Xo'ja Sesaron qabristonlari kabi qadimiy sanaladi. Bu joyni ilgari Havzi Miqdom mozori deb atashgan (Ahmad ibn Mahmud Buxoriy, 2009: 47). Ayrim hollarda Havzi Miqdom mozorini Tali Xo'ja Chahorshanbe deb ham nomlashgan. Qabristonni Havzi Miqdom deb atashlariga sabab, ayrim mualliflar, bu yerda hovuz bo'lgan deb ta'kidlashadi. Ahmad ibn Mahmudning "Tarixi Mullozoda" asarida Xo'ja Chahorshanbe qabristonida dafn qilingan taniqli din va fan arboblari (Abu Abdulloh Hoshid ibn Abdulloh as-Sufiy al-Obid al-Buxoriy, imom va muhaddis Hofiz G'unjor, Xo'ja Dahniyoz, Imom Muhammad ibn Muhammad ibn Ibrohim al-Basir al-Maydoniy al-Buxoriy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad ibn Ismoil...) haqida ma'lumotlar bayon qilingan. Nomlari qayd qilib o'tilgan mazkur Buxoroning mashhur din arboblarning yashab faoliyat yuritgan davrlariga asoslanib, Xo'ja Chahorshanbe qabristoni Somoniylar davriga tegishli deb xulosa qilish mumkin. Asrlar davomida qabriston atrofi kengayib borgan.

Aftidan Xo'ja Chorshanba qabristoni XVI-asrda ham o'z ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatini yoqotmagan ko'rinadi. Negaki, Jo'ybor xo'jalarining ota-bobolari Buxorodagi Chor Bakr mozoriga dafn qilingan bo'lsa-da, bu nufuzli xonadonning ayrim vakillari Xo'ja Chorshanba mozorida dafn qilingan. "Tuhfat uz-zoirin" asarida Xo'ja Chorshanba tepaligida dafn qilingan ulug' avliyo va din arboblarning mozorlari va ziyorat obyektlari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, asarda Imom Ala ul-haqq va din Imom Muzaffar (1349- yilda vafot etgan), Xo'ja Kamol ad-din Tohir ibn Hazrat Imom Muzaffar (1432-yilda vafot etgan), Sirojiddin Muhammad Shayx ul-islom, Muhiddin Muhammad Yahyo, Xo'ja Nizomiddin ibn Xo'ja Muhammad Yahyolar shu mozorda dafn etilganligi ta'kidlaniladi (Muhammad Nasiriddin Al-Xanafi Al-Hasani Al-Buxari, 2003: 20).

Tarixiy adabiyotlarda Xo'ja Chorshanba tepaligi shimolida Xo'ja Aspgardon ziyoratgohi joylashganligi to'g'risida quyidagi topografik qaydlar uchraydi: Xo'ja Aspgardon mazkur talning shimolida, talning sharqida Havzi Arbob va masjidning qiblasida, Xo'ja Rushnoiyning marqadi va Bozori nav serahasida (yo'l uchga bo'lingan joy) Imom Muhammad G'azzoliyning munavvar qabri bor (Ahmad ibn Mahmud Buxoriy, 2009: 49). Nazarimizda, XIX-XX -asrlarda Xo'ja Chorshanba Buxoro shahridagi yirik qabristonga aylanib, hududlarning joylashgan o'rni va yo'nalishi mazkur qabristonga qarab belgilangan. Taniqli buxoroshunos olim O.A. Suxareva ham Buxoro shahrida Xo'ja Aspgardon kvartalining kattagina qismini Xo'ja Chorshanba qabristoni egallaydi, deb ta'kidlaydi (Suxareva, 1976: 166). Demak, Xo'ja Chorshanba mozorining shimoliy qismlari Xo'ja Aspgardon, sharqiy tomoni Havzi Arbob kvartaliga borib tutashgan. Shuning uchun ham olim tadqiqot olib borgan davrda Xo'ja Aspgardon kvartalining juda katta qismini qabriston (tal, pushta) egallaganligi sababli rasmiy hujjatlarda bu kvartal Xo'ja Aspgardon kvartali deb atalsa-da, mahalliy aholi uni Xo'ja Chahorshanbe kvartali deb atashgan (Suxareva, 1979: 166).

"Tuhfat uz-zoirin" asarida Xo'ja Aspgardon nomi bilan atalgan shaxs va uning to'liq ismi haqida ham ma'lumot beriladi. Jumladan, Xo'ja O'ktam (Xo'ja G'aribning uchinchi o'rinbosari) ning qabri Xo'ja Chorshanba mozorining g'arbiy qismida joylashib, bu kishi xalq orasida Xo'ja Aspgardon nomi bilan mashhur bo'lganligi ta'kidlaniladi (Muhammad Nasiriddin Al-Xanafi Al-Hasani Al-Buxari, 2003: 42). Xo'ja Kabir Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniylarning xalifalari hisoblanib, Xo'ja G'arib bu kishining farzandi hisoblangan (Ahmad ibn Mahmud Buxoriy, 2009: 76). Xo'ja Kabirning mozorlari qal'a devori etagida, Ayyor minorasi yonida joylashgan (Muhammad Nasiriddin Al-Xanafi Al-Hasani Al-Buxari, 2003: 41). Muallif qal'a devori etagida deganda, shahristonning shimoliy qismidan Avliyoyi Kabirga kelishdagi kenglikni nazarda tutgan. Gayoron minorasi "Tarixi Mullozoda" da Burji Ayor

minorasi sifatida qayd qilingan (Ahmad ibn Mahmud Buxoriy, 2009: 76). Ko‘rinadiki, Gayoron minorasi, ba‘zi adabiyotlarda Burji Ayor minorasi deb ham atalgan. Yuqorida ”Tarixi Mullozoda”da Xo‘ja Avliyoi Kalonning qabri joylashgan hududni “Hisor (qal’a) tuproq uyumiga yaqin” deb ko‘rsatilishi, haqiqatan ham shahriston shimolida tepalik bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Manbalarda Xo‘ja G‘arib ilmu ma‘rifatda yuksak mavqe va iqtidorga ega ulug‘ avliyo sifatida ta‘riflanadi. “Tuhfat uz-zoirin” da Xo‘ja Chorshanba va Xo‘ja Aspgardon qadamjolari (Bugungi kunda tarixiy shahristonning g‘arbiy tomonida joylashgan Xo‘ja Aspgardon muqaddas qadamjosidan tashqari, Buxoro shahri Alpomish ko‘chasida ham maydoni 0.25 gektardan iborat Xo‘ja Aspgardon qabristoni mavjud) shaharning janubiy-g‘arbiy tomonidagi chegaralari sifatida tavsiflanadi. Xo‘ja Chorshanba mozori haqida manbalarda ta‘kidlangan yuqoridagi topografik chizgi va qaydlar Buxoro shahridagi Mulla Muhammad Sharif madrasasidan g‘arbda, Masjidi Balanddan shimoliy-sharqda, Qo‘sh madrasaning sharqiy tomonida yirik qabriston (Tale Pushta) bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, o‘sha davrda yaratilgan shahar rejalarida ham bu o‘z aksini topgan. Jumladan, Fenin rejasida shahardagi qabristonlar soni 30 ta (Eshoni Imlo, Imom Qozixon, Mavlono Sharif, Xo‘ja Chorshanba, Xo‘ja Nurobod, Zindafil Ahmadi Jomiy, Hazrat Ayyub, Shermuhammad juvozkash, Xo‘ja Avliyoyi Kabir, Xo‘ja Ro‘shnoyi, Eshoni ustoz, Xo‘ja Sesaron, Xo‘ja G‘oib, Xo‘ja Bulg‘or, Shoh Axxi, Xo‘ja Avliyoyi G‘arib, Xo‘ja Ali Atlaspo‘sh, Xo‘ja Amonboy, Mirakon, Oq Mazar, Xo‘ja Kalon, Xalfa Husayn, Turki Jandi, Shayx Rangrez, Ishoni Imlo, Xo‘ja Girebon Chok, Xo‘ja G‘unjori, Ismoil Somoniy maqbarasi, Yozda Birodaron, Shayx Jalol (Suxareva, 1966: 84).

N.Xanikov rejasida ular 13 ta (Eshoni Xo‘ja Xudoydod, Hazrati Eshoni Imlo, Go‘ristoni Jo‘ybor, Hazrati eshoni Habibulloh, Imom Qozixon, Xo‘ja Ro‘shnoi, Xo‘ja Gardon, Xo‘ja Bulg‘or, Turki Jandi, Kimsangiron, Xo‘ja Pobband, Xo‘ja Nurobod, Mirakon) ni tashkil qilgan (Xanikov, 1843: 81).

XIX asrning 30-yillari aks etgan Buxoro shahri chizma (xarita)larida eng yirik qabristonlar sifatida Abu Is‘hoq Kalobodi madrasasining shimolidagi Xo‘ja Nurobod, undan shimoliy-g‘arbda Xo‘ja Sesaron, shaharning g‘arbida joylashgan Chashmai Ayyub, Ismoil Somoniy, shahriston janubiy-g‘arbidagi Xalifa Xudoydod, Xo‘ja Chorshanba, shahar janubida Namozgoh darvozasiga borishdagi Shams al-Mulk mozorlari aks etganligini qayd qilish mumkin (Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far Narshaxiy, 2011: 484).

Ayniqsa, XX- asr boshlarida bu holatni Ismoil Somoniy, Turki Jandi, Xo‘ja Bulg‘or va Chashmayi Ayyub maqbarasi atrofida yuzaga kelgan tepalik ko‘rinishidagi sag‘analar misolida ko‘rish mumkin. 1910-yilda Buxoro shahrida 70 dan ortiq pushtalar bo‘lib, ular shahar maydonining 12 % ini tashkil qilgan (Nekrasova, 2008: 38).

Fikrimizcha, Xo‘ja Chorshanba mozorida dastlabki topografik o‘zgartirishlar Somoniylar davrida amalga oshirilgan. Taniqli olim R.Gafurova Somoniylar davrining taniqli imomi Abu Muhammad Abdulloh ibn Yaqub ibn al-Xosir Safidmuniy (vafoti 340/952)ning mozorini ham xuddi shu Xo‘ja Chorshanba tepaligida joylashganligini ta‘kidlaydi (Gafurova, 1992: 11-12). Olima o‘zining ushbu qarashlari “Tarixi Mullozoda”da bayon qilingan Abdulloh Safidmuniyning qabri Abu Hafs Kabir maqbarasi yonida ekanligi haqidagi faktlarga to‘g‘ri kelmasligini ta‘kidlaydi (Gafurova, 1992: 11-12).

Demak, bu ikkala nomutanosib fikrga asoslanib, Somoniylar davrida Abdulloh Safidmuniyning qabri Xo‘ja Chorshanba tepaligida, so‘ngra Mullozoda yashgan davrda esa uning qabri Xo‘ja Chorshanba tepaligidan Abu Hafs Kabir maqbarasi yoniga ko‘chirilgan, deb xulosa chiqarish mumkin. Demak, Somoniylar davrida, ya‘ni IX-X asrlarda shahar hududi kengaytirilib, shahar ichida yirik qurilishlar amalga oshirilgan. Bu qurilish va obodonlashtirish ishlari Xo‘ja Chorshanba mozorida ham topografik o‘zgartirishlarni amalga oshirilishiga olib kelgan.

Arxeolog olim V.A.Shishkin Chashmai Ayyub, Xo'ja Chorshanba, Turki Jandi, Xo'ja Bulg'or, Xo'ja Nurobod va Xo'ja Sesaron kabi eski qabristonlar XVI asr devorni qayta qurishdan oldin shahar chegarasida, shahar devoridan tashqarida joylashganligini ta'kidlaydi (Shishkin, 1936: 18-19). Demak, XVI- asrda eski shaharda, haqiqatan ham, shahar kengayishi bilan bog'liq jarayonlar bo'lganligi olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda o'z ilmiy tasdig'ini topgan. Yuqorida nomlari keltirilgan mozorlar XVI- asrda devor ko'chirilgandan so'ng shahar ichkarisiga olingan.

Xo'ja Chorshanba mozorida keng miqiyosli topografik o'zgarishlar sobiq Ittifoq davrida amalga oshirilgan. XX- asr o'rtalarida amalga oshirilgan topografik o'zgarishlar Shayx Jalol mahallasiga tutash Sohibzoda, Mirakon, Xo'ja Chahorshanbe kabi ko'chalarga ham ta'sir qilgan. 1928-yilda shahardagi va shahar devorlaridan tashqaridagi qabristonlar dafn qilish uchun yopilgan, XX asrning 40-70-yillarida ularning deyarli barchasi buzib tashlangan (Nekrasova, 2008: 38).

Haqiqatan ham, XX asrning 40-70-yillarida Buxoro shahri Tali G'aribon, Imom Qozixon, Sayfiddin Boxarziy, Turki Jandi, Jo'ybor, Tali Fayzobod, Xo'ja Chorshanba, So'fiyoni Sauri, Chashmai Ayyub, Ismoil Somoniy maqbarasi atrofidagi qabristonlar buzib tashlangan, uning o'zni aholiga turar-joy uchastkalari sifatida bo'lib berilgan.

Mazkur tepalik joylashgan tarixiy hududda aholi turar joylari qad rostlab turibdi. Bugungi kunda Xo'ja Chorshanba qabristonidan Usto Shirin ko'chasi 39-uyning oldida birgina sag'ana saqlab qolingan. Mazkur qabristonning shimoliy tomoni Xo'ja Aspgardon hovuzi va qadamjosiga tutashib ketgan. Hozirda Xo'ja Chorshanba qabristoni o'rnida Usto Shirin va Shota Rustaveli ko'chalari joylashgan.

Xulosa

Buxoro shahri tarixiy topografiyasini o'rganish, tadqiq qilish masalasi hamma davrda tadqiqotchilar diqqat markazidagi dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Bu borada muqaddas qadamjolar topografiyasini tadqiq qilish shahar tarixiy topografiyasidagi ayrim masalalarga oydinlik kiritadi. Sovet Ittifoqi davrida Buxoro shahrining tarixiy So'fiyon, Mirakon, Sohibzoda, Saraxsiyon, Jo'ybor va yana bir qancha guzarlari, shuningdek, Masjidi Baland yodgorligi, Xalifa Xudoydod yodgorlik kompleksi atrofida katta topografik o'zgarishlar amalga oshirilgan. Bugun bu yerda qator aholi turar joylari qad ko'targan.

Shaharning janubiy va markaziy qismida amalga oshirilgan bunday qayta qurish va yangilanishlar, shubhasiz, bu hududlarning asl tarixiy qiyofasini yo'qolishiga olib kelgan.

O'zbekiston Mustaqillikka erishgach qadimiy va navqiron Buxoro shahrini zamonaviy va milliy shaharsozlik an'analari asosida qayta qurish, obodonlashtirish hamda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish muhim vazifaga aylandi. Mazkur muhim faoliyat yodgorliklarni asl tarixiy holida tiklash va ta'mirlashdan boshlandi.

1997-yil oktyabrda Buxoro shahrining 2500- yillik yubileyi munosabati bilan shahriston va arkda keng ko'lamli bunyodkorlik, qurilish, ta'mirlash, obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Ayniqsa, Somoniylar maqbarasi, Bolohovuz masjidi, Ark qal'asi, Miri Arab madrasasi, shahristondagi Labi Hovuz, Poyi Kalon majmualari, jami 28 ta me'moriy obida to'liq ta'mirlandi. Bugungi kunda madaniy meros obyektlarini asrab-avaylashga e'tibor yanada kuchaydi.

2000- yillardan so'ng Buxoro shahristonining (shaharning qadimiy, Eski shahar qismi) sharqiy tomoni tarixiy Kalobod darvozasi tashqarisida Dahmai shohon ziyorat majmuasi barpo qilindi, shayx Jalol darvozasi tomonida Xo'ja Ismat Buxoriy ziyoratgohi obodonlashtirildi, Haq-roh darvozasi bo'lgan Abu Hafs Kabir Buxoriy me'moriy kompleksi zamonaviy-tarixiy qiyofa kasb etdi, shuningdek, Turki Jandi, Chashmai Ayyub ziyoratgohi, Boboyi Porado'z maqbarasi kabi ulug' allomalar nomi bilan bog'liq ziyoratgoh, qabriston, maqbara, masjid va madrasalar asl holida restavratsiya qilinib, obod maskanga aylantirildi.

Bugungi kunda Xo‘ja Chorshanba ziyoratgohida ba’zi tarixiy-tiklash ishlarni amalga oshirish Buxoroda ziyorat turizmini taraqqiy qilishi uchun muhim hissa bo‘lib qo‘shiladi. Shu fikrga asoslanib, ayrim takliflarni ilgari suramiz: Buxoroning tabarruk maskani sanalgan Xo‘ja Chorshanba qabristoni (hozirda Buxoro shahridagi Usto Shirin Murodov ko‘chasi) tarixiy o‘rnida ramziy qadamjo barpo qilish, bu yerda abadiy qo‘nim topgan ulug‘larning nomlari qayd qilingan ro‘yxatni shakllantirish, Xo‘ja Chorshanba ziyoratgohida dafn qilingan tasavvuf ilmi yirik namoyandalarning hayoti va faoliyati, ilmiy merosiga doir ma’lumotlarni kengroq yoritish va ommalashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

KAYNAKÇA

- Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy (2011), *Buxoro tarixi* (perevod, komentarii i primechaniya Sh.S.Kamoliddina, arxeologo–topograficheskiy kommentariy Ye.G. Nekrasovoy). Tashkent: MultiMedia-Asia.
- Ahmad ibn Mahmud Buxoriy “Muin al-fuqaro”. (2009), Tarixi Mullozoda. Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Gafurova R.L. (1992), Kitabi Mulla-zade. /Ostvenniy redaktor B.A.Axmedov.–Tashkent: Fan, –B.11-12.
- Jo‘rayeva N.O. (2024), Muqaddas qadamjolar Buxoro shahr tarixiy topografiyasining muhim tarkibiy qismi. (Monografiya), -Toshkent: Dimal, -156 b.
- Muhammad Nasiriddin Al-Xanafi Al-Hasani Al-Buxari. (2003), Tuhfat az-zairin (Buxarskaya chast) / Perevod s tadjiksko-persidskogo, predisloviye i kommentariy X.Turayeva.–Tashkent:Fransuzkiy institut issledovaniy Sentralnoy Azii (IFEAC), –50 c.
- Muin al-fuqaro Ahmad ibn Mahmud Buxoriy (2019), Tarixi Mullozoda (Fors tilidan tarjima, muqaddima, tadqiq, izohlar, ilovalar muallifi Komiljon Rahimov.–Toshkent:Fan, -216.
- Nosir ad-Din al-Xanafi al- Xasani al-Buxoriy (2021), Tuxfat az-zairin (“Podarok palomnikam”) perevod s tadjiksko- persidskogo, predisloviye i kommentarii - X.Turayev. – Tashkent: Splendid Idea, -204s
- Nekrasova Ye.G. (2008), Nekropol Turki Djandi v Buxare (materiali po istoricheskoy, topografii, arxitekture i arxeologii) // Iz istorii kulturnogo naslediya Buxari.– Vip.11.– Buxara: Buxoro,–S.38.
- Sadriddin Salim Buxoriy. (2015), Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari.- Toshkent:Navro‘z,-360b.
- Suxareva O.A. (1958), K istorii gorodov Buxarskogo xanstva (istoriko-etnograficheskiye ocherk). Tashkent: Izd-vo ANUzSSR, -191 s.
- Suxareva O.A. (1966), Buxara XIX-nachalo XX v.(Pozdnefeodalniy gorod i yego naseleniya).– Moskva:Nauka,-332 s.
- Suxareva O.A. (1976), Kvartalnaya obshina pozdnefeodalnogo goroda Buxari. – Moskva: Izd-vo Nauka glavnaya redaktsiya vostochnoy literaturi, -370 s.
- Shishkin V.A. (1936), Arxitekturiye pamyatniki Buxari.–Tashkent:Izd-vo komiteta nauk UzSSR. – 100 s.